

Marifatparvar Jadidchilarning Pedagogik Qarashlari

Toshov Muxiddin Jo'raboyevich¹, Turdieva Dildora²

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'rifatparvar jadidchilarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma'naviy- axloqiy g'oyalari, ma'rifatparvar olimlarning ta'lim tizimiga , ayniqsa maktab ta'limi sohasiga qo'shgan hissalarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktab, hayot, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, fan-texnika, mustaqillik, tafakkur.

Ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma'naviy axloqiy g'oyalari, fikr-muloxazalari o'sha murakkab tarixiy sharoitlarda shakllandi va rivojlandi. Ma'rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma'naviy holati darajasini yaxshi bilganlar. Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiyligi madaniy saviyasini davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chorlash zarurligini chuqur anglab etganlar. Xalqni Yevropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg'or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da'vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma'rifatparvarlar birinchilardan bo'lib tushunib etganlar. «*Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a sura boshladi. YAngi talim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. YAngiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikr-g'oyalari oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib qilindi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o'z ahvolini yaxshilashga intilishning ko'rinishlaridan edi.*». Jadidchilikning asosiy mohiyati millatni koloqlik, xurofot botqog'idan chiqarishga qaratilgan.

XX asr o'zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir. «Usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qilganlar. SHular birinchi bo'lib zamonaiviy oliy maktab g'oyasini ilgari surdilar, o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyuştirib, ular yordamida qanchadan-kancha yoshlarni taraqqiy qilgan Evropa mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbek teatrining birinchi g'ishtini qo'ygan, nashru matbuotini boshlab bergen ham shulardir.

Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixonor tuyg'ularini singdirishga urindilar.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatlarining tepasida Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHO'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Co'fizoda, Xamza, Sadriddin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o'nlab fidoiy farzandlari, shoimu adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar. Behbudiy o'z uyida ochilgan "usuli jadid" maktabining butun moddiy xarakatlarini o'z gardaniga oladi «Padarkush»ning sahnaga qo'ilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo'qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlardagi "usuli jadid" maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun o'zi «Muntaxabi jo'g'rofiya umumiy» («Qisqacha umumiy jo'g'rofiya»), «Madxali jo'xrofiya umroqiy» («Ahli jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha

¹ Dotcent

² Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti 1 bosqich magistranti



tarixi»), «Amaliyati islom» va «YAngi hisob» darsliklarini yaratdi va o‘z mablag‘iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo‘llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag‘i ham uning hisobidan chiqqan edi.

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXON O‘G‘LI (1878—1931) ham «*usuli savtiya*» maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o‘lkasidagi aholini qanday ma’naviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish chorralari faqat maktab ta‘lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog‘liqligini to‘g‘ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko‘rsatdi: mana shu maqsad yo‘lida Toshkentda ilg‘or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat «*Turon*» jadidlar jamiyatini tashkil etdi. Toshkentdagi jadidlar harakatining faol vakillaridan biri **SAIDRASUL SAIDAZIZIY** (1866-1933)ning ham ma’rifatparvarlik faoliyatini jadid tarbiyashunosligi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. U o‘z muallimlik faoliyatini SHayxantahurdagi 1-o‘rus-tuzem maktabida, so‘ngra Turkiston o‘qituvchilar seminariyasida sart (o‘zbek) tilidan dars berishdan boshlagan. Ana shu davrda Gramenitskiy va V.P.Nalivkinlar Saidaziziya «Musulmoncha sinf»da o‘zbekcha xat-savod o‘rgatish yuzasidan darslik yozishni topshirganlar, 1992 yilning sentyabr oyida «Ustodi avval»ning birinchi nashri 3000 nusxada chiqqan, 2- nashri 1903 yilda bosilgan. Bu darslik 1917 yilgacha 17 marta nashr qilinib, Turkiston o‘lkasida yuzlab yangi usuldagi «Usuli savtiya (tovush usuli) maktablari»ning ochilishiga sabab bo‘ldi.

Marifatning o‘chmas tarixi

Utgan asirlarning boshlariga kelib jadidlar xarakati to‘liq shakillandi ba o‘zining yuksak bosqichiga kutarildi. Ilim ma’rifatning barcha yunishlarida yutuk mutaxassislar jadal faolyat yurita boshladи. Ayniqsa maorif va madaniyat borasida o‘zganishlar ko‘lami katta bo‘ldi. Badiy adabiyotlarning zamонавија janirlarida ijod qilishga extiyoj oshib boradi. Ana shunday davir chorloviga yuksak darajada javob bergen istedodli qalamkashlardan biri Anqaboy Xudoybaxtov edi. U 1905 yili Jizzax viloyati baxmal tumanida lakkosh qishlog‘da tavallud topgan. Turli o‘quv maskanlarida taxsil olgan. Anqaboy Xudoybaxtov taniqli jurnalist, adabiyotshunos va dramaturg sifatida samarali faolyat olib bordi, mustaqillik uchun kurashgan jadidlarning oldi safida bo‘ldi.

Anqaboy Xudoybaxtovning xayoti va ijodi shuolor davridayoq peshqadam ziyorolarimiz tomonidan urganila boshlangan edi. 1986 yilda ustoz Inoyatulla Suvonqulov va shoир Normurod Narzullayevlar tomonidan o‘tkir qalam soxibi edi maqolasi e’lon qilindi. Faolyat fanlari doktori Inoyatulla Suvonqulovni Anqaboy Xudoybaxtovni boshlab bergen olim diyish mumkin. Ustozning “Arqaboy” nomli kiyingi masalasi “Muxbir ” jurnalining 1969- yil 3- sonida chop etildi. Ayni vaqtida domla Anqaboy xaqida qator ma’ruza va suxbatlar uyuşhtirdi. Nixoyat 1990 yilgi “Sanat” jurnalida S. Asqarovning “ Zamon farzandi ” maqolasi bosilib chiqdi. Mustaqillik yillarida yana bir qator maqolalar, turli manbalar ma’lumotlar dunyo yuzini kurdi. Nashrlarning katta qismida Anqaboy Xudoybaxtovning xayoti va yozgan asarlariga, jamoatchilik faolyatiga ko‘proq to’xtalindi. Adib ijodining o‘ziga xos tomonlari, badiy va ilmiy jixatlariga nisbatan kam e’tibor berildi.

Hammaga ma’lumki, jadidlar ma’rifatparvarlikdan mustaqillik uchun kurashishga bo‘lgan keng jabxada faolyat olib borishdi. Shuning uchun xam Anqaboy Xudoybaxtovning o‘nlab maqolalarini xaqida “Faorisat ” risolasida millatdoshlarini ma’rifatga chorlash kuzda tutilgan bo’lsa, “Shodmon ” drammasida milliy ozodlik xarakatiga da’vat asosiy o‘rinda turadi. Usha zamonalarda sinfiy kurash manzaralarini tasvirlash yitakchi o‘rinda bo‘lib, mustaqillik uchun kurashga chorlovning zinxor iloji yuq edi. Bu borada dramaturg aloxiga kashfiyotga qo‘l urdi. Mustaqillik uchun kurash da’vatini sinfiy kurash manzaralari xatiga muvaffiqiyatl joyladi. Shu ma’noda drama qaxramonlaridan birining mana bu so‘zları diqqatga loyiқ: bizlarni urus poshologiga mustamlaka bo‘lganmiz uchun qiyamoqdalar o‘z xukumatimizni kurib urus amaldorlarini xaydabmiz, o‘zimizga o‘zimiz xo‘jayin bo‘lamiz. Bu suzlarning saxnadn jaranglashi yangi mustamlakachilikdagi yoqmas edi. 1937 yil drama millatchilikni targ‘ib qilgan davvosida taqiqlandi.

“Shodmon ” dramasi 1933 yil Xamza nomidagi o‘zbek akademik dramma teatrida saxnalashtirilgan edi. Drammadagi asosiy romanni Shukur Byrxonov , Obid Jalilov, Olim Xo‘jayev, G’ani Azamov,



kabi teatr san'atimiz darg'alari ijro etishadi. Bu dramaning saxna talqini xaqiqatdan yuqori saviyada bo'lishini taminlaydi.

Anqaboy Xudoybaxtov hayot haqiqatiga sodiq ijodkor edi, u uzini zo'r lab "inqilob kuychisiga" aylantirmoqda "Shodmon" dramasida yana bir shunday epezdor bor: Xalq shiddatini tuzgan ta'mosha boylar arosatda qolishmadi, ikkilanishadi Yurt Shodmon kabilar quliga o'tsa quruq qolmaslikka intilishadi ular urus boylarini xaydab yuborishga tarafdar, xatto mardikor olishga ham "qarshi". Chunki mardikorda yumushlar ketib qolsa, ularning yirlarida ishlaydigan tekin kuchlar kamayadi, urislar ketsa ular egallab olgach yaxshi yirlarni o'zlariga qolishini o'ylaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. M.Toshov. Professional ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy , tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. O`quv qo'llanma.-214-bet.EFFEGT-D nashriyoti,T-2022
2. Xaber, "Samarqanddag'i teatr.
3. Yanvar charshanba" sarlavhasi bilan qayta nashr etilgan. (İmzasız, "Semerkand Haberleri", Ayna, No. 12, 11 Yanvar 1914 [25 Ocak 1914] / 27 Safer 1332, s. 286.) 6. İmzasız, "Semerkand'da Tiyatr", Ayna, No. 10, 28 Dekabr 1913 [14 Ocak 1914] / 16 Safer 1332, s. 234.

